

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Nosirova, L.A.Ernazarova	
Nasriy matnlardagi sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik jihatlari	212
O.I.Yadgarova	
Shaxsni o'rganishda projektiv metodikalarning afzalliklari tahlili	216
O.M.Xalimova, A.A.Xusanov	
Ovoz buzilishlari: ovoz buzilishlarini turlari va kelib chiqish sabablari	221
D.X.Turdiboev	
O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ahamiyatlilik darajasi	224
Sh.D.Ismoilov	
O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash kompetensiyasini shakllantirishning tamoyillari	227
S.A.Yaxyayeva	
Yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirishning tarixiy zaruriyati va mafkuraviy asoslari	231
B.B.Nizomova, O.T.Sobirov, G.G'.Xomidova	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar. Protistalar. Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati	236
G'.B.Samatov.S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash	248
X.R.Saidova	
Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari	254
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari	259
Sh.H.Yusupaliyeva	
Texnik oliy o'quv yurtlarida chet til darslarini tashkillashtirishda o'g'zaki nutq kompetensiyasini samarali qo'llash usullari	263
X.R.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	266
X.M.Madazimov	
Bir hikoya talqinida bosh qahramon qiyofasi	274
B.T.Yunusaliyev	
Modus kategoriyasining modallilikni o'rganishdagi ahamiyati.	277
K.I.Qosimov	
Abdulla Qodiriy – XX asr geniysi	280
M.A.Xusanova, M.A.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir	287
M.O.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar	290
N.S.Qobilova, M.T.Hojiyeva	
Umumiy taqiqlovchilar va ularning komponentlari	293
A.M.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	297
Z.V.Alimova, U.A.Soxibova	
Frazeologik birliklar va ularning semantik tahlili	300
I.I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	305
B.A.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi	310
Z.H.Usmonova	
Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("the martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari	315
A.M.Mamarasulov	
Osmon va yer tushunchalarining qiyosiy semantik tadqiqi	319
L.X.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	322

BIR HIKOYA TALQINIDA BOSH QAHRAMON QIYOFASI

ИМИДЖ ГЛАВНОГО ГЕРОЯ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ РАССКАЗА

MAIN HERO IMAGE IN THE INTERPRETATION OF THE STORY

Madazimov Xabibullo Muzaffaxon o'g'li¹

¹Madazimov Xabibullo Muzaffaxon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotida Shukur Xolmirzaev asarlarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Uning "Qushlar qishlovdan qaytishdi" hikoyasidagi bosh qahramon tasviri orqali sho'ro mafkurasini aldovining qurboni bo'lgan, o'z davri chaqiriqlariga siddiqdildan xizmat qilgan shaxs fojiasi ishonarli yoritib berilgan. Xarakterlar talqinidagi yozuvchi mahorat qirralari ko'rsatib berilgan.

Аннотация

В статье раскрывается роль и значение произведений Шукура Холмирзаева в развитии современного узбекского повествования. Через его изображение главного героя в рассказе «Птицы вернулись из деревни» убедительно объясняется трагедия человека, ставшего жертвой обмана шуринской идеологии и служившего зову своего времени. Показаны особенности писательского мастерства в трактовке персонажей.

Abstract

The article describes the role and importance of Shukur Xolmirzaev's works in the development of modern Uzbek storytelling. Through his portrayal of the main character in the story "Birds Returned from the Village", the tragedy of a person who was a victim of the deception of the Shura ideology and served the calls of his time was convincingly explained. The features of the writer's skill in the interpretation of characters are shown.

Kalit so'zlar: o'zbek hikoyalari, mahorat, davr muammolari, bosh qahramon, shaxs, harakter, talqin, yozuvchi, ijtimoiy-siyosiy hayot.

Ключевые слова: узбекские рассказы, мастерство, проблемы времени, главный герой, личность, персонаж, интерпретация, писатель, общественно-политическая жизнь.

Key words: Uzbek stories, skills, problems of the time, protagonist, person, character, interpretation, writer, socio-political life.

KIRISH

Muayyan mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-tarixiy sharoit nafaqat o'sha mamlakatning iqtisodiy, siyosiy sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi, balki xalqning hayot tarzida ham o'z aksini topadi. Bunday o'zgarishlar va bu davrga xos xususiyatlar adabiy asarlarda muayyan muammolar talqini fonida ifodasini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni adabiy asarlarda qanday tasvirlanishi, badiiy ifodalanishi ijodkorning dunyoqarashi, yondashuv tarzi, mahoratiga bevosita bog'liq bo'ladi. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, davrning dolzarb muammolari aks etgan asarlari bilan muhim o'rin tutgan serqirra yozuvchi Shukur Xolmirzaevdir. Uning "Qushlar qishlovdan qaytdi" (1997) hikoyasida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar tez ro'y berishi, kishilar ongidagi o'zgarishlar birmuncha qiyin kechib, ikkilanishlar bilan yuz ko'rsatishi tasvirini topgandir. Hikoyada yozuvchi "Enam Oysha Omonova xotirasiga bag'ishlayman" degan so'zlarni epigraf qilib keltirgan.

Hikoyaning prolog qismi shunday tasvir bilan boshlanadi: "Jasad yotqizilgan tobutning bu boshiga duxoba, u boshiga banoras parani yoptilar.

– Zulfiya opa tirilib qolsa, nima der edi?

– Darvoqe..."[1, 659].

Ushbu prolog o'ziga xos syujetning tuguni vazifasini bajaradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor ko'plab hikoyalardagi voqealar shunday tugun bilan boshlangan. Ushbu o'rinda ulug' adibning ijodiy ta'siri ham bir qadar ko'zga tashlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hikoyaning bosh qahramoni Xosiyat Qosimova – bir vaqtlar sho'ro davlatining barcha topshiriqlarini bajaruvchi kommunist sifatida xizmat qilib, raykom vazifasida faoliyat ko'rsatgan ayol. So'ng esa nafaqaga chiqib, "xonanishin"ga aylanib veteranlar safiga qo'shilgan. Keksaygan bu

ayolni, yillar o'tib, hech kim yo'qlamay qo'yan. Sakkizinchi mart bayrami arafasida unga ittifoqo hokimiyatga Hokim bobo – Hurram Xursandov taklif etayotganini o'g'li Xabibullo etkazadi.

Kampir bir vaqtlar ayollarning paranji tashlash kompaniyasida faol ishtirok etgan. Halq dushmani sifatida kimlarnidir qamalishida ularning partiyadan o'chirish bilan, o'z "hissa"sini qo'shgan. "Oltin qidiruv" kompaniyasi davrida Idrisboyning yashirgan oltin tangalarini uning tomining orqa devoriga yopishtirgan tappilari ichidan topib bergan. Ular davlat hisobiga musodara qilingan, ya'ni markazga Rossiyaga olib ketilgan. Lekin kampir o'zining bu qilmishlarini hamon yillar o'tsa ham to'g'ri, deb biladi. Hikoya bosh qahramoni Hosiyat opa sho'ro davlati ideallariga ishonuvchi, haloligi, "ko'zi to'qligi" bilan ajralib turuvchi partiya fahriysi. Lekin shunga qaramasdan sho'ro davlatining olib borgan siyosati jabrdiydasi. Uning turmush o'rtog'i ehtiyotsizlik oqibatida nosini Nikita Sergeevich Xrushchov rasmi bor gazetaga o'ragani uchun qamab yuborilgan. Hosiyat opaning sho'ro davlatiga ana shunday sidqidildan xizmat qilgani uchun uning qarindoshlari o'rtanchi amakisining uyini biqinidagi o'raga ko'mib yuborishmoqchi bo'lishadi. Shunda u revkom uyiga yarim kechasi devorma-devor yurib borib yordam so'ragan va uning yordamida omon qolgan edi. Sho'ro hukumati revkomni ham "bosmachiga yon bergan" degan ayb bilan otib tashlagan.

Hosiyat opa hokimiyatga majlisga borar ekan, lozim-ko'ylak kiygan ayollarni ko'rib hayratga tushadi. Bir vaqtlar xizmatchi ayollar uyda ham lozim kiyishga ruxsat berishmaganini yodga oladi. So'ng, Habibullo onasining mo'l-ko'l yosh to'kayotganini ko'radi. Bu hol hikoyada bosh qahramon kechinmalaridagi tug'yonni, fikrlardagi qarama-qarshi holatlar ifodasiga xizmat qilib, quyidagicha tasvirini topadi:

– He, bolam-e, ko'p azob chekkan ekanmiz-da, – dedi opa piqqilab. – Ishton bilan nima ishing bor-de... Erimmisani? Pirqa, pariya kamunis... – Hosiyat opa yana jimib-o'ylanib qolib, shosha-pisha kostyumining qo'yniga qo'l yubordi. Qip-qizil muqovasiga "KPSS" deb yozilgan biletini chiqardi.

– Haliyam asrab yuribsizmi? – dedi Xabibullo tag'in g'ijinib. – Nima, kepesingiz tiklanadimi yana?

– Gapirma! – vajohati tutib dedi Hosiyat opa – Bu bilet... bu meniki. – Kampir parinshonhol bo'lib, qizil muqovali daftarchani ko'ksiga bosdi. – O'zimdiki. Hech kim tortib, ololmaydi. Mayli, imonsizlar kuydirsa, kuydirsin... – Endi o'g'luga qarab xuddiki va'z ayta boshladi. – Enang – ikkiyuzlamachi emas! Bilib qo'y! Kamunis bo'lib o'ladi engan...[1,665]

So'ng, Hosiyat opa firqa a'zosi Jonboevning eskilik sartqiti, deb uning arg'imchog'imni kesib tashlaganini esladi. "Beshik nima, beshik? Shu beshikka bola yotqizishniyam man qilishib edi nokaslar...[1,665] deya xo'rsindi.

Mustaqillik e'lon qilingandan keyin Hosiyat opa avvalgi qilgan xizmatlari uchun qamab qo'yishlaridan qo'rqadi. Unga zalda Xurram Xursanovich minbarga taklif etib so'z berganida, u sho'ro davridagi balandparvoz gaplarni tilga oladi. "Xotin-qizlarga ozodlik bergan pariya ming rahmat! Yashasin Lenin-Stalin... him, kommunistik partiya!" – deydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'ng esa, borlig'ida hamisha mavjud bo'lgan "boshqa odam" ovozi bilan "Bundan menga ma'lum bo'ldiki, o'rtoqlar bu shiorlar...Xo'sh, bu hitoblarning davri o'tib ketibdi. Bizga o'xshagan miyasi suyulib qolgan qari-qartanglarning tilida qolibdi-ki, mana, chiqib ketdi..." ...[1,670-671] dedi. Uning ushbu so'zlaridan keyin suv qo'ygandek jimjitlik hukm surgan zal chappaklarga to'lib ketadi. Hosiyat opa so'zlarini ushbu iqror bilan yakunladi: "Ha, shior, lozunglar, – deb yana odamlarga yuzlandi Hosiyat opa. – Shu o'rtoqlar, shu shiorlarning-ku o'zi puch edi, mag'zi yo'q edi. Lekin biz juda-a xursand bo'lardik eshitganda. Shunday turgan joyindan yana bir-ikki marta aytganingdi bilmay qolarding..." ...[1,672]

Hosiyat opaning ichida ikki odam – biri sho'ro davri illatlarini uning siyosatini qoralovchi, ikkinchisi esa uning g'oyalarini ma'qullovchi borligi hikoya voqealari davomida izchil aks ettirila boradi. Qorolovchi: "Lekin paranji kuydirish davrida ko'p yomon ishlar bo'ldi-da... He, shunday paranjilar kuyib ketdiki, qarab – tomosha qilib to'ymasdi kishi. Lang-lang yonadi... Biz ahmoq qizchalar quvonamiz. Kun chiqayotganday... Yo'q tillo topgan tentakday... Nodonlik. "Muzeyda tursin", deydigan kishi yo'q. ...[1,678] desa, oqlovchi: "U, u... qorong'ilik dunyosi edi! Paranj ming yillar mobaynida o'zbek xotin-qizlarini zulmatda saqladi" ...[1,678] deydi.

Hosiyat opa sandig'iga sho'ro hukumatidan yiqqan medallari taqilgan kostyumi bilan birga onasining paranjisini ham solib saqlab qo'yan. U o'g'lidan "Komunist xotinning paranjisi bor ekan,

yashirib yurar ekan”, deb menga tegishmaydimi?” – deya so‘radi. So‘ng “pirqa kaput” bo‘lgani esiga tushadi, paranjisining yirtilgan joyini tikib berish uchun keliniga uzatadi.

Habibullo pastlab uchib o‘tayotgan turnalar ovozini eshitadi. Ularning barvaqt kelganini, ob-havoda bir o‘zgarish bo‘lib, mo‘ljalidan adashganini anglab etadi. “Ana shunda Habibullo jamiyatda, ya’ni jamiyatning ob-havosidayam shunday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, shunda odamlarning ham to‘g‘ri yo‘ldan adashib qolishlarini o‘ylab, fikri ravshan tortib ketdi. – Ha , Oktyabr inqilobi... O‘-o‘ butun-butun xalqlarni chalg‘itib yuborgan edi. Qancha azob tortdi odamlar...” [1,681]. Shu tariqa asarda “ tabiat tasviri asar g‘oyasini ifodalashga xizmat qildiriladi. [2, 76]

XULOSA

Sh.Xolmirzaevning “Qushlar qishlovdan qaytdi” hikoyasi sarlavhasidayoq mustaqillikka kelib, el ozod bo‘lganiga ishora bor. Asarda sho‘ro mafkurasiga sidqidildan xizmat qilgan, uning maqtoov yorliq va orden-medallarga aldanib, umrini zoe etgan shaxslar qiyofasi ishonarli tasvirini topgan. Bundan tashqari, birgina Hosiyat opa obrazi orqali mustaqillik ostonasiga ilk qadamlarini qo‘yayotgan kishilarning qalbida, dunyoqarashida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni, ba‘zan iqtisodiy sharoitlarning shaxslararo va jamiyat bilan munosabatlarga ko‘rsatayotgan ta‘sirini, bir so‘z bilan aytganda, yangilanayotgan tabiatli zamondosh, yurtdosh siymosi va sajiyasini, haqqoniy ko‘rsatishga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar – Toshkent. “Sharq” nashriyoti - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020.
2. Sabirdinov A. Ma’naviyat va ma’rifat chashmalari –Toshkent “Akademnashr”, 2016